

Xurshid Davron She'riyatida Tun Va Tong Timsollari

*Toshqulova Zebiniso Baxriddin qizi*¹

Annotatsiya: Ushbu maqolada yangi o'zbek she'riyatiningb namoyandasi sanalmish Xurshid Davron she'riyatida uchraydigan “tun” va “tong” timsollarining poetik talqini o'rganildi. “Tun” va “tong” obrazlarining semantik tahlili, ijodkor ijodida qo'llangan poetik mahorat yoritilgan.

Kalit so'zlar: she'riyat, timsollar, poetik talqin, obraz, semantik tahlil, poetik mahorat.

Introduction

She'riyatning paydo bo'lishi juda qadim ildizlari mavjud bo'lib, uning dunyo adabiyotshunosligida o'rganilishi ham o'ziga xos tarixga ega. Arastuning “Poetikasi”dan boshlangan deb e'tirof etilgan G'arb adabiyotshunosligi keyinchalik Nikola Bualo “Poeziya san'ati”(1674), Goratsiyning “Poeziya ilmi”, Deni Didroning “Dramatik poeziya san'ati”,Lessingning “Gamburg dramaturgiyasi”, V.Belinskiy “Aleksandr Pushkinasarlari” kabi adabiyotshunoslikka oid manbalar she'riy janr va shakllar taraqqiyoti haqida bir qadar tasavvur beradi.²

Dunyo adabiyotining bir bo'lagi hisoblangan o'zbek she'riyati haqida esa dastlabki ma'lumotlar Mahmud Koshg'ariyning «Devon-u lug'otit turk» asari orqali berildi³. Mazkur asardagi ma'lumotlar lirik shakllar va janrlar, ularning arxaik atamaları haqida ilk bor bildirilgan fikrlar sifatida qimmatlidir. Sharq adabiyotshunosligida Ahmad Taroziy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Boburlarning ham she'riy janr-shakllar borasidagi qaydlari katta ahamiyatga ega⁴.

Barmoq vaznida ko'plab she'rlar yozgan Xurshid davron ham o'z ijodida tun va tong obraziga murojaat qilgan va ularning ma'nolari turlichadir. Xurshid Davron she'rlarida muhabbat, ona vatanga bo'lgan sevgi, farzand tarbiyasi, tabiat tasviri, falsafiy ruhdagi mavzulardir.

Manzara

*Oq sukunat portlar saharda,
Kun nurida yonib, yaraqlab,
Chopib kirar sovuq shaharga
Yalangayoq yashil daraxtlar.*

Shoirning ushbu sherida ikki bir biriga qarama-qarshi tushunchani bir misrada qo'llash orqali o'z mahoratini ko'rsatib bera olgan. Ya'ni sukunatning portlashi, bilamizki, tong sahardan ko'ra oldinroq bo'lgan vaqt hisoblanadi va bu vaqtda tabiat biroz qorong'u bo'ladi. Sahar esa borliq nurga to'lgan

¹ Termiz davlat pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi

² Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. – B.15.

³ Махмуд Кошғарий Девону луғотит турк. 3 жилдлик. 1-жилд. Таржимон ва нашрга тайёрловчи: Солих Муталлибов. Т.: Фан, 1960; Махмуд Кошғарий Девону луғотит турк. 3 жилдлик. 2-жилд. Таржимон ва нашрга тайёрловчи: Солих Муталлибов. Т.: Фан, 1963; Махмуд Кошғарий Девону луғотит турк. 3 жилдлик. 3-жилд. Таржимон ва нашрга тайёрловчи: Солих Муталлибов. Т.: Фан, 1963.

⁴ <https://milliycha.uz/taroziy/>. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. 13-жилд: Мажолис ун-нафоис. Т.: «Фан», 1997; Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. 16-жилд: Муҳокамат ул-луғатайн. Мезон ул-авзон. Тарихи анбиё ва ҳукамо. Тарихи мулуки ажам. Арбаъин. Сирож ул-муслимин. Муножот. Рисолаи тийр андохтан. Т.: «Фан», 2000; Заҳириддин Муҳаммад Бобир. Бобирнома. ЎзФА нашриёти. Т. – 1960



vaqtdir. Bu vaqtda quyosh o‘z nurini deyarli barilla yoygan bo‘ladi va bu holat hech qanday shovqinlarsiz amalga oshadi.

Bir kecha yodi

*Tuyg‘ulardan Devona ko‘ngil,
Sahargacha yuramiz daydib.
Kelarmikan bu joduli tun,
Kelarmikan dunyoga qaytib.*

Ushbu sherda tun oshiqning, o‘smirlik davridagi muhabbat alangasining yurakni yoqishiga nisbatan ishlatilishidir. Bunday davrlarda inson muhabbatdan Devona bo‘lib, shoir tabiat bo‘lib qolishi ham shoir nazdidan chetta qolmagan. Oshiqlar sevgi chulg‘agan bu chog‘larda sehlrlangan insonlarday his qiladi o‘zini. Tun esa har qanday, dard va tuyg‘uni qo‘zg‘atuvchi paytdir. Sahar esa barcha dardlardan xolis bo‘lishga erishish, uyg‘onish vaqti sanaladi.

Dastxat

*Iloham, tong kabi yuzingga
Hirslanib, hezlanib boqarlar,
Ko‘zlarin qoqarlar ko‘zingga,
Qalbingni azoblab yoqarlar.*

Tong barcha g‘arazliklardan, qorong‘ilikdan, zulmatlardan, razolatdan holi vaqtdir. Ko‘pgina yozuvchi, shoirlar tongni yorning chexrasiga mengzaydilar, chunki suyukli yor yuqoridagi barcha hislatlardan holi shaxs sifatida ta’rifladani.

Visol

*Kecha uzun,
Xayolday uzun,
Undan uzun qorong‘u sukun,
Hadiksirab turaman faqat,
Nogoh kelib qolmasaydi kun.*

Keltirilgan she’rda tunning insonni barcha o‘y-u hayollar og‘ushida qolishi uchun eng kerakli payt ekanligini keltirilgan, chunki kun kelishi bilan uyg‘onish, harakatlanish, kurashish va hayol surishdan chekinish vaqti berilgan.

*Yo‘l uzunmi, dard uzun?
Darvish ashulasi uzun.
Tun qorami, dard qora?
Darvish peshonasi qora.*

Shoirning “Samarqand darveshi” nomli she’rida ham tun so‘zi qora leksemasi bilan birgalikda kelib, yangi semantik ma’no tashishga xizmat qilgan. Bilamizki, tun g‘am, dard, alam, anduh vaqti sifatida



talqin qilinadi. Bunda shoir o'z dardining og'irligini yunning qoraligi bilan solishtirib, darvesh insonning baxti chopmagani, taqdiri ham tunday, balki undan ham qora ekanligini aytib o'tgan.

Men ketarman...

Ketarman... Osmon

Tiniq bo'lar, beg'ubor bo'lar.

Osmonmas, u bergan hayajon

Va hayratlar men bilan o'lar.

Ha, bir tongda quyosh chiqaru

Bu dunyoda meni ko'rmaydi.

Men o'laman, ammo ko'ksimdan

Unib chiqqan giyoh o'lmaydi.

Tongda quyosh chiqishi - bu kunning ilk vaqti bo'lib, quyoshning ufqda ko'rinishi bilan boshlanadi. Bu vaqt, odatda, tunning so'nggi qismini va kunning boshini belgilaydi. Quyosh chiqishi turli joylarda va mavsumlarda turlicha vaqtga to'g'ri keladi. Quyosh chiqishi vaqtini aniqlash uchun quyidagi faktorlar hisobga olinadi:

1. Geografik joylashuv: Har bir joyda quyosh chiqish vaqti turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, qishloqlar va shaharlar orasida bunday farqlar bo'lishi mumkin.
2. Mavsum: Yozda va qishda quyosh chiqishi vaqti farq qiladi, chunki yerning aylanishi va uning o'z o'qi atrofidagi harakati sifatida mavsumiy o'zgarishlarga olib keladi.

Quyosh chiqishi ko'plab madaniyatlarda muhim ahamiyatga ega. Bu vaqtda odamlar ko'plab an'analar va urf-odatlariga amal qiladilar. Masalan, turli dinlarda ibodatlar va marosimlar o'tkazish, yangi kunni kutib olish kabi hodisalar mavjud. Agar siz quyosh chiqishi bilan bog'liq yanada aniq ma'lumotlar yoki muayyan joylar bo'yicha vaqtlarni bilmoqchi bo'lsangiz, qo'shimcha savollar bermoqdan tortinmang.

Xulosa qilib aytganda, "tun" va "tong" dialektikasi o'zining turli poetik tahliliga ega bo'lib, bu madaniyatlararo ham farq qiladi. O'zbek adabiyotida ham bu ikki leksema kontekstdan kelib chiqqan holda turlicha talqin qilinadi. Madaniyatlararo esa bu leksemalar turlicha talqin qilinishi ham mumkin. Buni oldingi maqolalarimizda keltirib o'tganmiz.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. – B.15.
2. Махмуд Кошғарий Девону луғотит турк. 3 жилдлик. 1-жилд. Таржимон ва нашрга тайёрловчи: Солих Муталлибов. Т.: Фан, 1960
3. <https://milliycha.uz/taroziy/>. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. 13-жилд: Мажолис ун-нафоис. Т.: «Фан», 1997; Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами.
4. Toshqulova, Z. (2024). JAHON ADABIYOTIDA TUN VA TONG DIALEKTIKASINING QIYOSIY TAHLILI. *Молодые ученые*, 2(37), 124–127
5. Zebiniso, T. (2022). SIFAT SO'Z TURKUMINING USLUBIY XUSUSIYATLARI. *Scientific Impulse*, 1(4), 34–37.
6. Musurmonqulov, A. (2023). AN ALGORITHM FOR RANKING VERBS AND TAGGING THEM IN THE CORPUS. *International journal of advanced research in education, technology and management*, 2(5).



7. TUN VA TONG DIALEKTLARINING TARIXIY TARAQQIYOT BOSQICHLARIDAGI TAHLILI. *ACUMEN: International Journal of MUL*
8. <https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/salim-ashur-sherlar.html>

